



# “Alisher Navoiy va XXI asr”

**8-ULUSLARARO KONFERANSI MATERIALLARI**

*Toshkent-Boku, 2023-yil 6-7-fevral*

# “Əlişir Nəvai və XXI əsr”

**8-ci BEYNƏLXALQ KONFRANS MATERIALLARI**

*Daşkənd-Bakı, 6-7 fevral 2023-cü il*

# “Alisher Navo'i and the 21st century”

**8th INTERNATIONAL CONFERENCE PROCEEDINGS**

*Tashkent-Baku, February 6-7, 2023*



بوسوزکیم  
آندین خیر پر  
کرم الناس علی قدر عقولهم  
کری شریف یوق ساندین  
غایت بولغای یردی رعایت

**UO‘K: 821.161.1=512.133**

**KBK: 83.3 (50‘)**

**A 51**

**Mas’ul muharrirlar:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti rektori

**Isa HABIBBEYLI,**

akademik,

Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi prezidenti  
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot Institutı bosh direktori

**Tahrir hay’ati:**

Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Vahit Turk (Turkiya), Teymur Kerimli (Ozarbayjon), Muslihiddin Muhiddinov (O‘zbekiston), Nushoba Arasli (Ozarbayjon), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Ramiz Asker (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Pasha Kerimov (Ozarbayjon), Yashar Qosimov (Ozarbayjon), Sirojiddin Hoji (Ozarbayjon), Karomat Mullaxo‘jayeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Gulbahor Ashurova (O‘zbekiston), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev (O‘zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O‘zbekiston)

Ushbu to‘plamda “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o‘rin olgan. O‘zbek navoiyshunosligining bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

12. Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

13. Шайхзода М. Классик адабиётимизнинг улуғ сиймоси. Асарлар. Олти жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “Шарқ”, 2002.

## ALISHER NAVOIY HAYOTIDAGI MUHIM BIR VOQEA

**Akramjon DEHQONOV**

*f.f.n., dots. (O‘zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada temuriy shahzoda Husayn Boyqaroning Xuroson taxti uchun kurash olib borgan vaqtlarida bo‘lib o‘tgan bir muhim voqea xususida fikr yuritiladi. Bu hodisa Husayn Boyqaro hayoti va faoliyatidagi eng muhim burilish nuqtasi bo‘lgan edi. Ushbu o‘ta qaltis va tahlikali voqeada Husayn Boyqaroning do‘sti, ulug‘ o‘zbek shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning ishtiroki hamda o‘ta muhim vazifani bajarganligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o‘sha voqeaga bevosita yoki bilvosita aloqasi bor ko‘pgina shaxslar to‘g‘risida ham qiziqarli ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Alisher Navoiy, Hirot, hokimiyat, Husayn Boyqaro, saroy, qamal, poytaxt, Yodgor Mirzo, taxt, qurol-yarog‘, voris.*

### *Annotation*

*The article discusses an important event that took place during the struggle for the throne of Khorasan by the Timurid prince Husayn Boykara. This event was the most important turning point in the life and career of Husayn Boykara. The participation of Alisher Navoi, the great Uzbek poet and statesman, the friend of Husayn Boykara, and his performance of a very important task in this extremely volatile and dangerous event were analyzed. Also, the article contains interesting information about many persons directly or indirectly related to that event.*

**Key words:** *Alisher Navoi, Hirot, power, Husayn Boykara, palace, siege, capital, Yodgor Mirza, throne, weapons, successor.*

### **Kirish**

Ko‘pgina tarixiy manbalarda, badiiy asarlarda Husayn Boyqaro taxt uchun kurash olib borayotgan chog‘larda Alisher Navoiyning ko‘rsatgan bir jasorati tilga olinadi. Buning qisqacha mazmuni shuki, 1470-yilda Hirotga ozgina qo‘shin bilan kirib kelib, “Bog‘i Zog‘on”ga yetib kelgan Husayn Boyqaro qasr tomida uxlab yotgan Yodgor Muhammad Mirzoni ushlab tushishni o‘z askarboshilariga buyuradi. Bu buyruqni bajarishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Shunda qo‘shin safida bo‘lgan Alisher Navoiy qo‘liga qilichni olib, uni hassaga o‘xshatib ushlab, Yodgor Mirzo yotgan yuqorigi qavatga qarab yo‘l oladi. Unga askarlardan bir necha kishi ergashadi. Yodgor Mirzo asir olinib, Husayn Boyqaro huzuriga olib tushiladi va ikki shahzodaning qisqa muloqotidan keyin Yodgor Mirzo qatl qilinadi.

### **Asosiy qism**

Hirotda taxtini egallab olgan bu shahzoda, ya'ni Yodgor Muhammad Mirzo kim va u qanday qilib hokimiyat tepasiga kelib qoldi?

Buni tushuntirish uchun tarixga, ya'ni chorak asr orqaga qaytishga to'g'ri keladi. Yodgor Muhammad Mirzoning otasi Muhammad Sulton Mirzo o'z bobosi Shohrux Mirzo tomonidan 1445-yilda Iroq mamlakatiga hokim qilib jo'natilgan edi. U tayin etilgan hududga borgach, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun bir necha ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, o'ziga itoat qilmagan Hamadon hokimi Amir Hoji Husaynni o'ldiradi. Muhammad Sulton Mirzoning shu va yana bir qancha ishlari Shohrux Mirzoning noroziligiga sabab bo'ladi. Shohrux Mirzo unga o'z noroziligini bildirib, chopar jo'natadi. Bu orada Shohrux Mirzoning betobligi to'g'risida xabar tarqalib, bu xabar Sulton Muhammad Mirzoga ham yetib kelgach, shahzodaning amirlaridan bir guruhi uni Iroq mamlakatining poytaxti Isfahon shahrini bosib olishga undaydi. Vaholanki, Shohrux Mirzo unga bunday huquqni bermagan edi. Sulton Muhammad Mirzo Isfahonni va viloyatini bosib oladi va Sherozga qarab yuradi. Sheroz hokimi Sulton Abdulloh Mirzo shaharni qamalga hozirlaydi va Shohrux Mirzoga zudlik bilan chopar jo'natadi. Sulton Muhammad Mirzo bobosi Shohrux Mirzoni qari va zaif, bu tomonlarga kelishga yaramaydi, deb o'ylagan edi. Lekin Shohrux Mirzo katta qo'shin bilan yo'lga chiqadi.

Shohrux Mirzo qo'shini bilan Sherozga yetib kelgach, Sulton Muhammad Mirzoning buyuk bobosiga ro'para bo'lishga ham yuragi dov bermaydi. Qo'shinni va shaharni tashlab, oila, bola-chaqalarini olib tog'larga chiqib ketadi. Shohrux Mirzo Sherozni egallab, voqea aybdorlarini qattiq jazolaydi, tartib o'rnatib yana orqaga – Hirotda qarab yo'lga chiqadi va Ray shahriga yetganda olamdan o'tadi.

Bobosining o'limidan keyin Sulton Muhammad Mirzo yana hokimiyat uchun kurashlar girdobiga otiladi. U o'zining qisqa muddatli Xurosondagi hukmronligi davrida Ozarbayjondagi qoraquyunli sulolasining hukmdori Jahonshoh Mirzoning qiziga uylanganligi haqida Abdurazzoq Samarqandiy "Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn" asarida xabar beradi. Nihoyat hokimiyat uchun bo'lgan kurashlarda Muhammad Sulton Mirzo ukasi Abulqosim Boburdan yengiladi va og'ir yarador bo'lgan holda asirga tushadi. Abulqosim Bobur uni o'limga hukm qiladi. Bu voqea 1451-yilda ro'y beradi. Juda katta ehtimol bilan Muhammad Sulton Mirzoning Jahonshoh Mirzoning qizi bo'lgan xotinidan Yodgor Muhammad Mirzo tug'iladi. Yodgor Muhammad Mirzo otasining qatlidan so'ng tug'ilgan bo'lishi ehtimoli kuchli. Uning ismi shunga dalolat qiladi. Yana Abdurazzoq Samarqandiy Muhammad Sulton Mirzoning xotinlaridan biri uning qatl qilinganiga chiday olmay o'zini o'zi halok qilgani haqida ham yozib qoldirgan. Bizningcha, mana shu o'zini o'zi halok qilgan malika ham aynan Jahonshoh Mirzoning qizi bo'lishi mumkin.

Abulqosim Bobur hokimiyatni egallashi bilan Xurosonda bir muddat tinchlik o'rnatiladi. 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etgach, shahzodalar o'rtasida yana hokimiyat uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatdan foydalangan Qoraquyunli hukmdor Jahonshoh Mirzo 1458-yilda Xurosonni egallaydi va poytaxt Hirotda kirib keladi. Lekin shu yilning o'zida Movarounnahr hukmdori bo'lgan temuriy Abu Said Mirzo bilan bo'lgan jangda yengiladi. Abu Said Mirzo unga Shohrux Mirzo bergan yerlar bilan kifoya qilish shartini qo'yadi. Jahonshoh Mirzo uning shartlariga rozi bo'lib, Ozarbayjonga qaytib ketadi. Shu ketishida u 7-8 yoshlarda bo'lgan o'zining qizidan bo'lgan shahzoda Yodgor

Muhammad Mirzoni ham Ozarbayjonga olib ketadi. Agar shunday bo‘lmaganida, ya’ni Yodgor Muhammad Mirzo unga nabira bo‘lmaganida juda qudratli hukmdor bo‘lgan Abu Said Mirzo asl temuriy shahzodani berib yuborishga rozi bo‘lmagan bo‘lar edi.

Mana shu tariqa Yodgor Muhammad Mirzo Ozarbayjonga borib qolgan.

Jahonshoh Mirzo esa 1467-yilda kuchayib kelayotgan oqquyunli hukmdorlaridan bo‘lgan Uzun Hasanga qarshi jangga otlanadi. Uning katta miqdordagi qo‘shini oktabr oyidagi juda erta tushgan sovuq tufayli og‘ir ahvolda qoladi. Jahonshoh Mirzo qo‘shinning katta qismini qishlash uchun orqaga qaytarib yuborishga majbur bo‘ladi. Uning har bir harakatini ziyraklik bilan kuzatib turgan, juda usta strateg bo‘lgan Uzun Hasan bunday vaziyatni qo‘ldan boy bermaydi va 1467-yilning 11-noyabr kuni tong saharda g‘aflatda yotgan Jahonshoh Mirzo qo‘shiniga hujum qiladi. Jahonshoh Mirzoning qo‘shini qirib tashlanadi, o‘zi jangda o‘ldiriladi. Shu bilan Ozarbayjonda uzoq vaqt hukmronlik qilgan qoraquyunli sulolasi tanazzulga yuz tutadi [3, 150]. Oqquyunli turkman sulolasi hokimiyat tepasiga keladi. Bu paytda o‘spirin yoshida bo‘lgan, Jahonshoh Mirzo homiyligida tarbiya topayotgan Yodgor Muhammad Mirzoni Uzun Hasan o‘z qaramog‘iga oladi. O‘ldirilgan Jahonshoh Mirzoning o‘g‘li Hasan Ali esa Uzun Hasanga qarshi urushda temuriy hukmdor Abu Said Mirzodan harbiy yordam so‘raydi. Abu Said Mirzo rozi bo‘ladi va juda katta qo‘shin bilan Ozarbayjonga, Uzun Hasanga qarshi urush uchun yo‘lga chiqadi. Uzun Hasan Abu Said Mirzo bilan sulh tuzib, masalani urushsiz hal qilishga ko‘p harakat qiladi. Lekin Abu Said Mirzo sulhga rozi bo‘lmaydi. Abu Said Mirzoga bu safar omad kulib boqmaydi. Ozarbayjonning Mug‘on dashtida bo‘lgan jangda Abu Said Mirzo qo‘shini yengiladi va o‘zi Uzun Hasan qo‘liga asir tushadi. Uzun Hasan mag‘lub podshoh Abu Said Mirzoni o‘zining huzurida bo‘lgan Yodgor Muhammad Mirzoga topshiradi. Yodgor Mirzo o‘zining katta buvisi bo‘lgan malika Gavharshodbegimning qasosi uchun uni qatl qiladi.

Uzun Hasan shundan so‘ng Sulton Abu Said Mirzoning mag‘lub bo‘lgan qo‘shinini Yodgor Muhammad Mirzoning qo‘l ostiga topshiradi va unga o‘zining ham bir necha ming kishilik qo‘shinini qo‘shib, Xuroson taxtini egallash uchun jo‘natadi. Darvoqe, Yodgor Muhammad Mirzo Xuroson taxtining qonuniy merosxo‘ri, ya’ni Shohruh Mirzoning evarasi, Boysunqur Mirzoning nevarasi, Muhammad Sulton Mirzoning o‘g‘li bo‘lgan.

Bu vaqtda ozgina askari bilan Hirotni egallab olgan Husayn Boyqaro bunday katta qo‘shinga bas kela olmasligini bilib, poytaxtni qoldirib, Foryob va Maymana viloyatlariga chekinadi.

Hirot taxtini egallab olgan Yodgor Mirzo bemalol hokimiyatni tasarruf qilib, aysh-ishratga beriladi, ehtiyotkorlikni unutadi. Shunday kunlarning birida Yodgor Mirzo qoshida xizmat qilib yurgan Husayn Boyqaroning ishonchli odami Mir Ali miroxur bir kuni kechasi Husayn Boyqaroga yashirincha xabar yuboradi. Bu xabarda Yodgor Mirzoning saroyda bir o‘zi uch-to‘rtta xizmatchisi bilan qolgani, saroydagi barcha qo‘riqchi askarlarga ruxsat berib yuborgani aytilgan edi [2, 158].

O‘n yillar davomida taxt uchun kurashib, Xorazm cho‘llarida sarson bo‘lib yurib zerikkan Husayn Boyqaro bunday vaziyatni qo‘ldan boy berishni istamaydi va o‘zi uchun g‘oyat tahlikali bo‘lgan ishga qo‘l uradi. Yuz nafarga yetar-yetmas askar bilan o‘n minglab dushman lashkari turgan Hirot tomon tunda yo‘lga tushadi. Askar g‘oyat ehtiyotlik bilan yo‘l bosadi. Husayn Boyqaro oz sonli askari bilan poytaxt – Hirotga kiradi. Hech kim sezmaydi. Yodgor Mirzo yotgan saroy – Bog‘i Zog‘onga kirib keladi. Buni ham hech kim

sezmaydi. Saroyda rostdan ham qo‘riqchilar, hatto podshohning xos navkarlari ham yo‘q edi. Endi saroy tomida yotgan Yodgor Mirzoni ushlab olib tushish qolgan edi, xolos. Husayn Boyqaro lashkar boshliqlariga Yodgor Mirzoni ushlab olib tushishni buyuradi. Ular buyruqni bajarishga ikkilanib qolishadi. Sababi Yodgor Mirzo Xuroson taxtining qonuniy vorisi bo‘lib, uni ushlab olib tushish o‘ta katta va og‘ir yukni bo‘yinga olish bo‘lar edi. Shuning uchun Husayn Boyqaroning yillar davomida janglarda chiniqqan amirlaridan birortasi bunday yukni bo‘yniga ola olmaydi. Bu ularning qo‘rqoqligidan emas, vazifaning o‘ta ulkanligi oldidagi, hali zehnlardan o‘chib ulgurmagan Shohrux Mirzoning haybati oldidagi esankirashdan edi. Shunda Alisher Navoiy bu ulkan mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi va qilichni qo‘liga olib, uni hassadek yerga sanchib, o‘ziga tanish bo‘lgan maxfiy zina orqali yuqoriga ko‘tariladi. Uning orqasidan askarlar ergashadi. Bu maxfiy zina Husayn Boyqaro bilan kelgan odamlar ichida katta ehtimol bilan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiygagina ma‘lum edi. Chunki ular Abulqosim Bobur Xurosonda hukmronlik qilgan yillarda uning saroyida xizmat qilishgan va “Bog‘i Zog‘on”da ko‘p marta bo‘lishgan, saroydagi barcha yo‘llar, zinalar ularga tanish bo‘lgan.

Yodgor Muhammad Mirzo asir qilib Husayn Boyqaroning oldiga olib tushiladi va u bilan qisqa savol-javobdan so‘ng qatl qilinadi. Yodgor Mirzoning o‘limidan so‘ng uning qo‘l ostidagi Ozarbayjon lashkari o‘z yurtiga qochib ketadi, qolganlari esa parokanda bo‘lib tarqalib ketadi. Yodgor Muhammad Mirzoni dafn etish uchun Sulton Husayn Boyqaro besh ming kepakiy dinor mablag‘ ajratadi va u temuriy shahzodaga xos izzat-ikrom bilan dafn etiladi [4, 665].

Sulton Husayn Boyqaroning bu jasoratini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, voqealarning tirik guvohi bo‘lgan Abdurazzoq Samarqandiy bu hodisani shunday tasvirlaydi: “Bu shunday bir voqeadirki, tiriklik varaqlari-yu kecha-kunduz sahifalarida nomdor sultonlar va Jamshid qudratli xoqonlar haqida hech bir yaratilgan bandaning hush qulog‘i bundayini eshitgan emas va kitoblarda hech bir so‘zamolning ko‘zi bunga o‘xshashini ko‘rgan emas. Negaki, Mirzo Yodgor Muhammad dorussaltana Hirotda maqom-u orom topgan vaqtda bir necha ming mukammal yarog‘-aslahali badaviy otiqlar ertadan kechgacha unga mulozimlik qilar edilar, Hirotdan Bag‘dod sarhadigacha (bo‘lgan yerlardan) paydar-pay ko‘mak olib turar edi. Mirzo Sulton Husayn oltmish farsang masofadan ilg‘or qilib kelib, andak odami bilan shunday jasoratli ish qiladi, deb hech kimning xotiri yaqiniga ham kelmagan edi...” [4, 664].

Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da guvohlik berishicha esa, shu yurish paytida Husayn Boyqaroning qo‘l ostida yuz kishiga yetar-yetmas qo‘shin bor edi: “...Va bu bir ish erdikim, andin burun hech podshoh qilmaydur erdi va andin so‘ngra dag‘i hech kishiga dast bermaydur erdi. Magarkim, Abulg‘ozi Sulton Husayn Bahodirxon xalladalohu mulkahug‘a muyassar bo‘ldikim, bu nav’ ish qildi. Va aning mujmali budurkim, ul hazrat Xuroson taxtin olg‘ondakim, hanuz mulk to‘qtamaydur erdi, Yodgor Muhammad Mirzokim, mulk vorisi erdi, azim cherik bila ul hazratning ustiga yurudi. Va ba’zi ko‘tahandesh el bevafolig‘ qilib anga qochib borg‘on jihatdin xaloyiq baddil bo‘lub, urush yarog‘in topilmay, ul hazrat mulkni solib, oz kishi bila qiroqqa tortti. Va g‘anim taxtni olib, mulkka mutasarrif bo‘lub, farog‘at bila beaded xayl va sipohin mulk buzmoqg‘a qo‘yobergan chog‘dakim, xaloyiq fig‘on va g‘irevi ul hazratning qulog‘iga yetishti. Asru oz nafar bila ul g‘olib aduv ustiga kelib, mulkiga kirib, taxtiga yuz qo‘yub, qasri saltanatida ani tutub, daf’ qilib, xalqni aning bedodidin xalos qildi. Va bu faqirning xayolig‘a andoq kelurkim, ul saharkim, bu ish voqe’

bo'ldi, har nechakim mulohaza qilildi, yuz kishiga yetmas erdilarkim, ul voqeada hozir erdilar..." [1, 633].

### **Xulosa**

Alisher Navoiy bu o'rinda bir necha muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan va bu ma'lumotlar tarixiy asarlarda butun tafsiloti bilan berilgan:

1. Bu hodisa bo'lib o'tgan paytda Xurosonda hokimiyat barqaror bo'lmay, qo'ldan qo'lga o'tib turgani ("...ul hazrat Xuroson taxtin olg'ondakim, hanuz mulk to'qtamaydur erdi").

2. Yodgor Muhammad Mirzoning Xuroson taxtining qonuniy vorisi ekani va uning katta qo'shin bilan Husayn Boyqaro ustiga yurgani ("Yodgor Muhammad Mirzokim, mulk vorisi erdi, azim cherik bila ul hazratning ustiga yurudi").

3. Husayn Boyqaroning ko'p odamlari Yodgor Muhammad Mirzo tomonga qochib o'tgani va Husayn Boyqaro bunday katta qo'shinga qarshi turgani kuch topa olmay, noiloj Hirotni tashlab, chekka viloyatlarga ketgani ("Va ba'zi ko'tahandesh el bevafo'lig' qilib, anga (Yodgor Mirzoga – A.D.) qochib borg'on jihatdin xaloyiq baddil bo'lub, urush yarog'in topolmay, ul hazrat (Husayn Boyqaro – A.D.) mulkni solib, oz kishi bila qiroqqa tortti").

4. Yodgor Muhammad Mirzo taxtni olgach, u bilan birga kelgan turkman qo'shini xalqqa bemalol zulm qilishga kirishgani va xaloyiqning oh-u nolasi Sulton Husayn Boyqaroning qulog'iga yetib borgani ("Va g'anim taxtni olib, mulkka mutasarrif bo'lub, farog'at bila beaded xayl va sipohini mulk buzmoqg'a qo'yobergan chog'dakim, xaloyiq fig'on va g'irevi ul hazratning qulog'iga yetushti").

5. Husayn Boyqaroning juda oz qo'shin bilan poytaxtga kirib, Yodgor Mirzoni o'z saroyida asir olib, qatl qilib, yurtda adolat o'rnatgani "(Husayn Boyqaro – A.D.) Asru oz nafar bila ul g'olib aduv ustiga kelib, mulkiga kirib, taxtig'a yuz qo'yub, qasri saltanatida ani tutub, daf' qilib, xalqni aning bedodidin xalos qildi...").

6. Bu voqea yuz bergan vaqtda Husayn Boyqaroning qo'l ostidagi askar yuz kishiga yetar-yetmas miqdorda ekani ("...ul saharkim, bu ish voqe' bo'ldi har nechakim mulohaza qilildi, yuz kishiga yetmas erdilarkim, ul voqeada hozir erdilar...").

Alisher Navoiy sanab o'tgan barcha ishlar o'sha davr haqida eng mukammal ma'lumot beruvchi tarixiy asar bo'lgan Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn" asarida butun tafsilotlari bilan berilgan.

Lekin Alisher Navoiy bu yerda o'zining ishtiroki haqida bir og'iz ham gapirmaydi, bunga ishora ham qilmaydi. Vaholanki, uning o'zi bu voqeada juda katta va og'ir ishni bajargan edi. Bu holat Navoiyning "Futuvvat barcha qilmakdur demak yo'q..." deb aytgan so'zlariga o'zining nechog'li amal qilganini ko'rsatuvchi yana bir dalildir.

Xulosa qilib aytganda, 1470-yilda Yodgor Muhammad Mirzo bilan bo'lgan voqea Alisher Navoiy hayotidagi eng muhim hodisalardan biri bo'ldi. Bu voqeada Alisher Navoiy o'zining Husayn Boyqaroga bo'lgan chin sadoqatini, uning uchun, uning davlatining barqarorligi uchun jonidan ham kechishga tayyor ekanligini amalda ko'rsatdi. Husayn Boyqaro ham uning bu sadoqatini munosib baholadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Танланган асар тўплами. 8-жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. – 860 бет.
2. Бобурнома. Захириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 бет.
3. “Об истории Азербайджанских государств Каракоюнлу и Аккоюнлу”. Выдержки из “Кембриджкой истории Ирана”. Туркменские династии. Перевод с английского Наргиз Ахундовой. – Баку, 2016.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаби саъдайн ва мажмаи баҳрайн”. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 750 бет.
5. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

## “NAZM UL-JAVOHIR” ASARINING MAVZU MUNDARIJASI

**Durdona ZOHIDOVA**  
*f.f.n., dots. (O‘zbekiston)*  
**Shoiraxon XO‘JAYEVA**  
*PhD (O‘zbekiston)*

### *Annotasiya*

*Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarining mavzu mundarijasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda ijodkorning “Nazm ul-javohir” asarida qalamga olingan iymon, shukr, sabr, ilm, odob, hayo, vafo, saxovat, himmat, diyonat, adolat, ota-onaga hurmat kabi mavzularning poetik talqini tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tahlil, sharh, poetik talqin, hikmat, ruboiy, iymon, ma’naviyat, hayo, vafo, saxovat, himmat.*

### *Abstract*

*This article is devoted to the study of the subject content of Alisher Navoi's work "Nazm ul-Javahir". It analyzes the poetic interpretation of the author's work "Nazm ul-Javahir" such as faith, gratitude, patience, knowledge, manners, modesty, loyalty, generosity, devotion, piety, justice, respect for parents.*

***Keywords:** analysis, commentary, poetic interpretation, wisdom, rubai, faith, spirituality, modesty, loyalty, generosity, diligence.*

“Nazm ul-javohir” asari Alisher Navoiy adabiy merosida yuksak falsafiy-didaktik g‘oyalarni go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida betakror poetik talqin etilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda buyuk adibning ma’naviy, axloqiy, ta’limiy, ijtimoiy va estetik qarashlari aks etgan. Bunda ijodkor Hazrat Ali hikmatlarini benazir ruboiylar qatiga joylaydi va bu orqali keng mushohadalarni qisqa shaklda aniq va tugal ifoda etishga erishadi.

“Nazm ul-javohir”dagi ruboiylar muayyan axloqiy masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Ularda insonni qalban poklanishga, ma’nan yuksalishga undovchi sof insoniy



## MUNDARIJA

<b>İsa HƏBİBBƏYLİ.</b> Əbədiy aşarlığın Əlişir Nəvai nümunəsi	7
<b>Shuhrat SIROJIDDINOV.</b> Alisher Navoiy o‘ziga ta’lim bergan ustozlari haqida	9

### I SHO‘BA. ALISHER NAVOIY ADABIY-ILMIY MEROSINING BASHARIYAT TAMADDUNIDA TUTGAN O‘RNI

#### BİRİNCİ OTURUM. ALIŞİR NEVAİ BİLİMSSEL MİRASININ BEŞERÎ DÜŞÜNCE TARİHİNDEKİ YERİ

##### PANEL I. THE PLACE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALISHER NAVOI IN HUMAN CIVILIZATION

<b>Nurboy JABBOROV.</b> Alisher Navoiy va maoniy ahli	15
<b>Vahit TÜRK.</b> Bedâyiü'l-Bidâye ve Türkiye'deki Divan Yayınlarında Bulunmayan Şiirler	25
<b>Nüşabə ARASLI.</b> Nəvainin fəlsəfi qəsidələrində Xaqani təsiri	30
<b>Nusratullo JUMAXO‘JA.</b> “Ashraquat...” g‘azalining sehr-u sinoatlari	39
<b>Boqijon TO‘XLIYEV.</b> Alisher Navoiy ijodi – fenomenal hodisa sifatida	44
<b>Yaşar QASIMBƏYLİ.</b> Dahi dastançının misilsiz lirikası	48
<b>Nozliya NORMURODOVA.</b> Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida	59
<b>Aftondil ERKINOV.</b> Navoiyning Mashhadiy bilan so‘nggi adabiy hamkorligi: Amerikadagi 1500-yili ko‘chirilgan noyob qo‘lyozma	63
<b>Almaz ÜLVİ BİNNATOVA.</b> Əlişir Nəvainin bioqrafik əsərləri (“ <i>Haləti-Seyyid Həsən Ərdəşir</i> ”, “ <i>Xəmsətul-Mütəhəyyirin</i> ” və “ <i>Haləti-Pəhləvani Məhəmməd</i> ”)	70
<b>Салида ШАРИФОВА.</b> Жанровое новаторство Алишера Навои	92
<b>Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV.</b> Navoiy “Xamsa”si nashrlariga doir	96
<b>Rashid ZOHID.</b> “Tirguzur har xastani...” ( <i>bir g‘azal sharhi</i> )	102
<b>Uzoq JO‘RAQULOV.</b> “Saddi Iskandariy”da “yo‘l” va “tasodif” xronotopi	107
<b>Dilnavoz YUSUPOVA, Dr. Kemal Yavuz ATAMAN.</b> Ali Şir Nevai’nin Nesayimü’l Muhabbet’inde Marifetullah Anlayışı	114

<b>Əlimuxtar MUXTAROV.</b> Nizami Gəncəvidən Əlişir Nəvaiyə qədər olan qardaşlıq ədəbiyyatı Almaz Ülvi Binnətovanın tədqiqatlarında	120
<b>Karomat MULLAXO‘JAYEVA.</b> Alisher Navoiyning hamd g‘azallaridagi obrazlar sistemasi xususida	124
<b>Firdavs ABDUXOLIQOV.</b> Alisher Navoiy siymosi Sharq miniatyuralarida	129
<b>Shoira AHMEDOVA.</b> Alisher Navoiy ruq‘alarida shoir shaxsiyatining aks etishi	133
<b>Zəhra ALLAHVERDIYEVA.</b> Nizami Gəncəvi “Xəmsə”sinin Əlişir Nəvainin “Heyrətül-əbrar” və “Fərhad və Şirin” poemalarında təsiri.	138
<b>Burobiya RAJABOVA.</b> Navoiyning shaxsiy kutubxonasi haqida	143
<b>Akramjon DEHQONOV.</b> Alisher Navoiy hayotidagi muhim bir voqea	151
<b>Durdona ZOHIDOVA, Shoiraxon XO‘JAYEVA.</b> “Nazm ul-javohir” asarining mavzu mundarijasi	156
<b>Təhminə BƏDƏLOVA.</b> “Məxzənül-əsrar”dan “Heyrətül-əbrar”a	162
<b>Ma‘mura RASHIDOVA.</b> Nizomiy Ganjaviy «Maxzan ul-asror» va Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonlarining qiyosiy təhlili	172
<b>Əzizağa NƏCƏFZADƏ.</b> AMEA Məhəmməd Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutunda qorunan Əlişir Nəvai əsərlərinin ən nəfis əlyazma nüsxələri haqqında	176
<b>Otabek JO‘RABOYEV.</b> Navoiyning rəsmiy devonlarından o‘rin olmagan she‘rlər matni masalasiga doir	181
<b>Azizulla AROL.</b> Alisher Navoiy bilan bog‘liq Afg‘onistonda nashr qilingan kitoblar	187
<b>Ilyos ISMOILOV.</b> Iskandar asrandi farzandmi?	191
<b>Alisher RAZZOQOV, Umarjon HIMMATOV.</b> Alisher Navoiy she‘riyatida tarso obrazining tasavvufiy mohiyati	197
<b>Siracəddin HACI.</b> Nizami Gəncəvinin “Sirlər xəzinəsi” məsnəvisi ilə Əlişir Nəvainin “Heyrət ül-əbrar” məsnəvisinin müqayisəli təhlili	202
<b>Oysara MADALIYEVA.</b> Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining Mashhad qo‘lyozmasi	209
<b>Ozod ALIMOV.</b> Matn va mas‘uliyat	218
<b>Gulandom YULDASHEVA.</b> Mariya Sabtelni tədqiqotlarında Hirot madaniy muhiti təsvifi	225
<b>Эльнур ГАСАНОВ.</b> Исследование высоких духовных ценностей в трудах Низами Гянджеви, предшественника А.Навои	232
<b>Gulshan RAHIM.</b> Toshbosma nashr – ko‘paytirilgan qo‘lyozma: kotiblar (Navoiy devonlari misolida)	238